

1Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**INFERENTIAL AND IMPLICATURE PHENOMENA IN PRAGMATIC INTERPRETATION****Mekhrinisa Ibrahimovna Kholmuradova**

Dean of the Faculty

Uzbekistan State Academy of Choreography

E-mail: mehrinisoxolmurodova04@gmail.com

ScienceID: FBX-0626-0213

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbek film stories, socially specialized speech, pragmatics, pragmatic feature, character speech, social group, social status, speech act, communicative goal, dialogue, appeal, irony, evaluation, context, communicative situation.

Received: 20.08.26**Accepted:** 21.08.26**Published:** 22.08.26

Abstract: This article analyzes the pragmatic features of socially specialized speech in Uzbek cinema. The study examines the formation of characters' speech depending on their social status, profession, age, field of activity, and communication environment, as well as their role in achieving communicative goals. The manifestation of socially specialized speech units through speech acts such as appeal, evaluation, command, request, irony, objection, confirmation, and denial is analyzed from a pragmatic perspective. The speech of the characters also reveals the interplay of factors such as context, communicative situation, speaker's purpose, and impact on the listener. Using the example of Uzbek film scripts, the importance of speech tools specific to social groups and strata in creating artistic images, defining the social status of a character, and increasing the impact of dialogue is substantiated.

O'ZBEK KINOQISSALARIDA IJTIMOIIY IXTISOSLASHGAN NUTQNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI**Mexrinisa Ibrahimovna Xolmuradova**

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi fakultet dekani

mehrinisoxolmurodova04@gmail.com

Ilmiy identifikatsiya raqami: FBX-0626-0213

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: oʻzbek kinoqissalari, ijtimoiy ixtisoslashgan nutq, pragmatika, pragmatik xususiyat, personaj nutqi, ijtimoiy guruh, ijtimoiy mavqe, nutqiy akt, kommunikativ maqsad, dialog, murojaat, kinoya, baholash, kontekst, kommunikativ vaziyat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada oʻzbek kinoqissalarida ijtimoiy ixtisoslashgan nutqning pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda personajlar nutqining ularning ijtimoiy mavqei, kasbi, yoshi, faoliyat sohasi va muloqot muhitiga bogʻliq holda shakllanishi hamda kommunikativ maqsadni yuzaga chiqarishdagi oʻrni yoritiladi. Ijtimoiy ixtisoslashgan nutq birliklarining murojaat, baholash, buyruq, iltimos, kinoya, eʼtiroz, tasdiq va inkor kabi nutqiy aktlar orqali namoyon boʻlishi pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, personajlar nutqida kontekst, kommunikativ vaziyat, soʻzlovchining maqsadi va tinglovchiga taʼsir kabi omillarning oʻzaro aloqasi ochib beriladi. Oʻzbek kinoqissalari misolida ijtimoiy guruh va qatlamlarga xos nutqiy vositalarning badiiy obraz yaratish, personajning ijtimoiy mavqeini belgilash hamda dialogning taʼsirchanligini oshirishdagi ahamiyati asoslanadi.

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОЦИАЛЬНО СПЕЦИАЛИЗИРОВАННОЙ РЕЧИ В УЗБЕКСКИХ КИНОПОВЕСТВОВАНИЯХ

Меҳриниса Ибрагимовна Холмуродова

Декан факультета

Государственной академии хореографии Узбекистана

E-mail: mehrinisoxolmurodova04@gmail.com

Научный идентификационный номер: FBX-0626-0213

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: узбекские кинотексты, социально специализированная речь, прагматика, прагматическая характеристика, речь персонажа, социальная группа, социальный статус, речевой акт, коммуникативная цель, диалог, обращение, ирония, оценка, контекст, коммуникативная ситуация.

Аннотация: В статье анализируются прагматические особенности социально специализированной речи в узбекских кинофильмах. В исследовании рассматривается формирование речи персонажей в зависимости от их социального статуса, профессии, возраста, сферы деятельности и коммуникативной среды, а также ее роль в достижении коммуникативной цели. С прагматической точки зрения анализируется проявление социально специализированных речевых единиц посредством речевых актов, таких как обращение, оценка, приказ, просьба, ирония, возражение, утверждение и отрицание. В речи персонажей также раскрывается взаимодействие таких факторов, как контекст, коммуникативная ситуация, цель говорящего и воздействие

на слушателя. На примере узбекских кинофильмов обосновывается значение речевых средств, характерных для социальных групп и слоев, в создании художественных образов, определении социального статуса персонажа и повышении выразительности диалога.

Kirish. Bugungi glaballashuv davrida lingvistik tadqiqotlar tobora rivojlanib, til hodisalarini tadqiq etishning yangi sohaları paydo bo'la boshladi. Badiiy asar tilida qahramonlarning nutqi ularning xarakteri, dunyoqarashi va jamiyatdagi o'rnini ochib berishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, kinoqissalarda personajlar nutqi real hayotdagi muloqotga yaqinligi bilan ajralib turadi. Unda turli kasb, yosh, ijtimoiy mavqe va muhitga mansub kishilarning o'ziga xos nutqiy xususiyatlari namoyon bo'ladi. O'zbek kinoqissalarida bunday nutq shakllari nafaqat personajning ijtimoiy xususiyatlarini, balki uning suhbatdoshga munosabati, kommunikativ maqsadi va nutq vaziyatidagi mavqeini ham ifodalaydi. Shu jihatdan ijtimoiy ixtisoslashgan nutqni pragmatik nuqtayi nazardan o'rganish kinoqissa tilining o'ziga xos tomonlarini yanada chuqurroq yoritish imkonini beradi. Mazkur maqolada o'zbek kinoqissalarida qo'llangan ijtimoiy ixtisoslashgan nutq birliklarining pragmatik vazifalari va ularning badiiy matndagi ifodasi tahlil qilinadi. Kognitiv tilshunoslik, korpus lingvistikasi, psixolingvistika, neyrolingvistika, pragmalingvistika kabi sohalar bugungi kunda dunyo va o'zbek tilshunosligida jadal sur atlarda taraqqiy etmoqda. Shu o'rinda pragmatika va sotsiopragmatikaga doir izlanishlarning ham dunyo miqyosida faol amalga oshirilayotgan bir paytda o'zbek tilshunosligida ushbu yo'nalishlarga nisbatan kam e'tibor berilayotganligini ta'kidlash lozim. Pragmatika tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o'rganuvchi sohasi, ya'ni muayyan belgilar tizimini o'zlashtirib, undan foydalanuvchi subektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o'rganuvchi fan tarmog'idir. Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida qamrab oluvchi nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo'ladi.

Asosiy qism

Lingvistik pragmatika aniq shakl, tashqi ko'rinishga ega emas; uning doirasiga so'zlovchi subekt, ularning aloqa-aralashuvdagi o'zaro munosabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog'liq ko'plab masalalar kiradi. Masalan, nutq subekti bilan bog'liq holda quyidagi masalalar o'rganiladi:

- bayonning oshkora va yashirin maqsadlari (bironbir axborot yoki fikrni yetkazish, so'roq, buyruq, iltimos, maslahat, va'da berish, uzr so'rash, tabriklash, shikoyat va b.);
- nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari;
- suhbat, so'zlashish qoidalari;
- so'zlovchining maqsadi;

-so'zlovchi tomonidan adresatning umumiy bilim jamg'armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va boshqa xislatlariga baho berilishi;

-so'zlovchining o'zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilar.

Pragmatikada nutq adresati, o'zaro aloqaga kiruvchilarning munosabatlari, muayyan aloqa vaziyati singari omillar bilan bog'liq holda ham ko'plab masalalar o'rganiladi. Pragmatika g'oyalari evristik (yo'naltiruvchi) dasturlash, mashina tarjimasini, axborot-qidiruv tizimlari va boshqalarni ishlab chiqishda qo'llanilishi bilan ham bugungi kunda nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Tilshunos Sh.Safarovning ta'kidlashiga ko'ra, pragmatika amerikalik olim Charlz Pirs tomonidan barcha bilim sohalarini birlashtiruvchi fan sifatida qaralgan semiotika doirasida yuzaga kelgan va rivojlangan[1]. Pragmatikani semiotikaning alohida sohasi sifatida qarash haqidagi fikrni birinchilardan bo'lib Ch.Morris ma'lum qilgan. Lisoniy belgilar tasnifini yaratgan bu olim semiotikani uch mustaqil qism, ya'ni lisoniy belgilarning predmetga nisbatan munosabatini o'rganadigan semantika, belgilarning bir-biri bilan munosabatini tavsiflovchi sintaktika hamda belgilarning ulardan foydalanuvchi shaxslarga bo'lgan munosabatini o'rganuvchi pragmatikaga ajratishni taklif qildi[2]. Keyingi yillarda ushbu yo'nalishlardan semantika va sintaksis jadal taraqqiy qilgan bo'lsa, pragmatikaga e'tibor sustroq bo'lganini ta'kidlash lozim. O'tgan asrning oxirgi choragiga kelibgina pragmatika tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida shakllana boshladi. Ilk nashrlarda pragmalingsvistikaning obektini aniqlashda bir tomonlama yondashuv ustuvor bo'lib, ularda til birliklarining ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari oldingi o'rinda turgan edi. G. Solganik lisoniy vositalar tanlovini pragmatik hodisa sifatida qayd etadi[3]. Shuningdek, V.L.Nayer nutqiy tuzilmaning pragmatik xususiyatini "so'zlovchining ongli ravishda, maqsadli ta'sir ko'rsatish istagi"[4], deb izohlaydi. Til birliklari vositasida o'quvchiga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari T.A. Deykning[5] tadqiqotlarida keltirilgan. Uning talqinicha, pragmatik nazariyaning asosiy tamoyili so'zlovchining tinglovchi ruhiy holatiga ta'sir o'tkazishi bilan bog'liq. Lekin olim pragmatikaning tor ma'noda talqin qilinishiga qarshi bo'lgan, u pragmatik-tilning vaziyatli qo'llanilishi to'plami, pragmalingsvistika-til egasiga nutqiy tuzilmalar qatorini ma'lum kontekst bilan bog'lash imkonini beradigan qoidalar tizimini qoliplashtirish ekanini ta'kidlagan. Van Djejk, shuningdek, pragmatikani sotsiolingsvistika va psixolingsvistikadan farqlash lozimligini ham tushuntirib beradi. Bundan tashqari, tavsifiy pragmatikada tildan foydalanishning amaliy qoidalari shakllantirilsa, nazariy, "mavhum" pragmatikada esa kuzatuvlar asosida umumiy kategoriyalar ajratilib, ularning o'zaro aloqasi o'rganiladi. Ta'kidlash lozimki, "Sintaksis va semantika" seriyasining 3-9-jildlari mazkur masalaga bag'ishlangan. J.Ostin, J.Syorl[6], J.Saddok, X.Grays, D.Vandervekin, V.V.Bogdanov, I.V.Kobozeva kabi ko'plab olimlarning ishlarida nutqiy akt nazariyasining asosiy tamoyillari atroflicha bayon qilingan[7], So'zning nomlanayotgan narsa-hodisa bilan bog'liq bo'lmagan qo'shimcha ma'nosi pragmatikaga

tegishlidir. Nutqiy aktlar masalasida, matn tilshunosligida bo'lgani kabi, matn mazmuni va berilayotgan axborot mazmunining qaysi qismi doimiyligini yoki muallif maqsadiga bog'liq holda shakllanganligini ajratish oson emas. Har holda, muallif maqsadining nutqiy tuzilmada voqelanishi semantikaning ishtirokisiz kechmaydi. Shu sabab, semantika va pragmatikani "obektiv mavjudlik - muallif tomonidan kiritilganlik" qarama-qarshiligida farqlash murakkablashib boradi. Natijada, mazkur masala bilan qiziqqanlarning xulosalari xilma-xil ko'rinishda bo'ladi. Van Deyk, G.Kamp, A.Kasher, G.G.Pochepsev, V.V.Bogdanov kabilar nutqiy aktlar nazariyasini pragmatika sohasiga tegishli deb hisoblaydi. Ayrimlar semantika va pragmatikani nutqiy formulalar qo'llanishining doimiyligi yoki favqulodda ekanligiga nisbatan chegaralash yo'lini izlaydi. Bu esa nutqiy aktlarning muayyan turlarga bo'linishini keltirib chiqaradi. Shuningdek, pragmatikani keng ma'noda anglash lozimligi, u tilshunoslikning semantika va sintaksis sohalarida o'rganiladigan masalalarni ham qamrab olishi va o'ziga xos umumlashtiruvchi yo'nalish vazifasini o'tashi, shunga nisbatan, pragmatik nazariya so'zlovchi va tinglovchining gap yoki matn propozitsiyasini bir xilda qabul qilishini e'tiborga olishi ham ta'kidlangan[8]. V.Xolmatovanning pragmatika tushunchasiga doir qarashlari, tahlil va talqinlari e'tiborga loyiq. Darhaqiqat, tilning jamiyatda bajaradigan muhim vazifalaridan biri-muloqot vositasi rolini o'tashdir. Pragmatik bilim, o'z navbatida, inson faoliyati davomida to'plangan tajriba natijasidir, axborot almashinuvi jarayonida ushbu bilim lisoniy voqelanadi va shu yo'sinda ongda saqlanadi[9]. Lekin har bir alohida nutqiy muloqot paytida lisoniy belgi yangicha mazmun ifodalay olishi mumkin.

Lingvosotsiopsixologiya sohasi vakillari pragmatikani ikki yo'nalishda, ya'ni matn-muallif va matn-adresat munosabatlarida tavsiflashni ma'qul ko'radilar. Natijada, axborotni uzatuvchi hamda axborotni qabul qiluvchi pragmatikalari farqlanmoqda. Ulardan birinchisi "static" xarakterga ega, chunki matn faqat birgina talqinga, ya'ni muallif talqiniga ega, adresat talqini esa, aksincha, dinamik xarakterdadir, zero "matnni qabul qiluvchilar soniga qarab, talqinlar ham davomsiz bo'lishi kutilgan hol"[10], Mualliflarning e'tiroficha, matn sathida bu masala muhim bo'lmasdan, balki ularning faollashuvi o'zaro bog'liqlikda kechadi.

O'zbek kinoqissalarida ijtimoiy ixtisoslashgan nutqning pragmatik xususiyatlarini aniqlashda matn va nutqiy vaziyatning o'zaro munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki lisoniy birliklarning pragmatik mazmuni alohida holda emas, balki muayyan kontekst, personajlararo munosabat va kommunikativ vaziyat jarayonida to'liq namoyon bo'ladi. Shu jihatdan kinoqissa matnini sotsiopragmatik tahlil qilish personajlarning ijtimoiy mavqei, kasbi, yoshi, muhitiga xos nutqiy belgilar bilan bir qatorda, ularning kommunikativ maqsadini ham ochib berish imkonini beradi.

Erkin A'zamning kinoqissa janriga mansub asarlarida bunday xususiyatlar ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Yozuvchi personaj nutqini faqat axborot yetkazish vositasi sifatida emas, balki

qahramonning xarakteri, ijtimoiy mavqei, ruhiy holati va boshqa obrazlarga munosabatini ifodalovchi muhim badiiy vosita sifatida qoʻllaydi. Quyidagi jadvalda kinoqissalarda ijtimoiy ixtisoslashgan nutqning asosiy koʻrinishlari, ularning pragmatik vazifalari va badiiy matndagi ifodasi umumlashtiriladi.

Oʻzbek kinoqissalarida ijtimoiy ixtisoslashgan nutqning pragmatik xususiyatlari

1-jadval

Ijtimoiy nutq turi	Asosiy belgilari	Pragmatik vazifasi	Nutqiy vaziyatdagi ifodasi	Badiiy vazifasi
Kasbiy nutq	Kasbga oid atamalar, maxsus birliklar	Axborot berish, aniqlik yaratish	Mutaxassislar oʻrtasidagi muloqot	Personajning kasbiy faoliyatini koʻrsatish
Yoshga xos nutq	Yoshlar leksikasi, norasmiy birliklar	Yaqinlik va norasmiy munosabatni ifodalash	Doʻstlar, tengdoshlar muloqoti	Personajning yosh xususiyatini ochish
Katta avlod nutqi	Anʼanaviy iboralar, nasihat va maqollar	Nasihat, baholash, taʼsir koʻrsatish	Ota-ona va farzand munosabati	Avlodlar oʻrtasidagi munosabatni yoritish
Ijtimoiy mavqega xos nutq	Hurmat, rasmiylik, murojaat shakllari	Masofa va ijtimoiy munosabatni belgilash	Rahbar–xodim, ustoz–shogird	Personajning jamiyatdagi oʻrnini koʻrsatish
Norasmiy soʻzlashuv nutqi	Oddiy, qisqa va emotsional birliklar	Erkin muloqotni taʼminlash	Kundalik suhbatlarda	Hayotiylik va tabiiylikni kuchaytirish
Mahalliy nutq	Shevaga xos soʻz va shakllar	Hududiy mansublikni anglatish	Bir hudud vakillari suhbatida	Milliy va hududiy kolorit yaratish
Jargonlashgan nutq	Muayyan guruhga xos birliklar	Guruhga mansublikni bildirish	Tengdosh yoki kasbiy guruh muloqotida	Ijtimoiy guruhning oʻziga xosligini ochish
Rasmiy nutq	Standart va adabiy til birliklari	Rasmiy munosabatni ifodalash	Tashkilot, yigʻilish, xizmat jarayonida	Vaziyatning rasmiyligini taʼkidlash
Emotsional-ekspressiv nutq	Undov, baholovchi soʻzlar, kinoya	Hissiy munosabatni yetkazish	Konfliktli yoki taʼsirchan vaziyatlarda	Personaj ruhiy holatini ochish
Murojaatga asoslangan nutq	Ism, qarindoshlik, lavozim va hurmat shakllari	Muloqot yoʻnalishini belgilash	Turli ijtimoiy munosabatlarda	Personajlar oʻrtasidagi munosabatni koʻrsatish

Ijtimoiy ixtisoslashgan nutqning pragmatik koʻrsatkichlari

Pragmatik ko'rsatkich	Nutqda namoyon bo'lishi	Kommunikativ maqsad
Murojaat	Ism, lavozim, qarindoshlik bildiruvchi birliklar	Suhbatdoshga murojaat qilish
Buyruq	Buyruq-istak shakllari	Harakatga undash
Iltilos	Muloyim so'rov shakllari	Istakni yumshoq ifodalash
Kinoya	So'zning yashirin yoki teskari ma'noda qo'llanishi	Bilvosita baholash
Baholash	Ijobiy yoki salbiy baho bildiruvchi birliklar	Shaxs yoki hodisaga munosabat bildirish
E'tiroz	Qarshilik va norozilik ifodalari	Suhbatdosh fikrini rad etish
Hurmat	Hurmat shakllari va rasmiy murojaatlar	Ijtimoiy masofani saqlash
Yaqinlik	Norasmiy va samimiy birliklar	Ijtimoiy masofani qisqartirish
Yashirin ma'no	Kontekst orqali anglashiladigan mazmun	Bilvosita fikr yetkazish

U har yili xuddi bir paytda yerdan qor ketib, tentak shamollar esa boshlagan ko'klam kunlarida kelardi; shamollarga qo'shib, shamoldek to'polon bilan kirib kelardi. To'satdan. Yelkasida-ha, qo'lida emas, yelkasida-ikki tarafiga ham "Barnaul" deb yozilgan pachoq chamadon, chap ko'zini qisinqiragancha qarshingizda beo'xshov tirjayi-ib turadi. So'ng, chamadonini keraksiz buyumdek bir chetga ulotiradi-da, quloqlarini keng yozib, bolaligingizni yodga soladigan, bolaligingizdek sho'x, bolaligingizdek beg'am ovozda hayqiradi. Erkin A'zamning "Anoyining jaydari olmasi" asaridan keltirgan parchani misol tariqasida tahlil qilish mumkin. Masalan: "Yelkasida-ha, qo'lida emas, yelkasida-ikki tarafiga ham "Barnaul" deb yozilgan pachoq chamadon..." Bu parchada muallifning takror, aniqlashtirish va tasviriy ifoda vositalaridan foydalanishi oddiy axborot berishdan ko'ra kengroq pragmatik vazifani bajaradi. Ya'ni qahramonning tashqi ko'rinishi, harakati va xarakteridagi o'ziga xoslik o'quvchi ko'z o'ngida jonlantiriladi. Kinoqissa janrining o'ziga xosligi sababli bunday tasvir rejissyor va aktyor uchun ham muayyan vizual tasavvur hosil qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'zbek kinoqissalarida ijtimoiy ixtisoslashgan nutqning pragmatik xususiyatlarini o'rganish badiiy matnning mazmuniy va kommunikativ imkoniyatlarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, personaj nutqining shakllanishida uning ijtimoiy mavqei, kasbi, yoshi, yashash va muloqot muhiti kabi omillar muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, mazkur nutq birliklari muayyan kommunikativ vaziyatda qo'llanib, murojaat, baholash, buyruq, iltimos, kinoya, e'tiroz va boshqa pragmatik ma'nolarni yuzaga chiqaradi.

Erkin A'zamning kinoqissalari misolida olib borilgan kuzatishlar ijtimoiy ixtisoslashgan nutqning faqat personajning ijtimoiy mansubligini ko'rsatish bilan cheklanmasligini, balki uning xarakteri, ruhiy holati, suhbatdoshga munosabati va kommunikativ niyatini ifodalashga ham

xizmat qilishini ko'rsatdi. Ayniqsa, dialogik nutq, murojaat shakllari, emotsional-ekspressiv birliklar va kontekstga bog'liq ma'nolar kinoqissa tilining pragmatik ta'sirchanligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Safarov SH. Kognitiv tilshunoslik - Jizzax: Sangzor, 2006. - B. 31.
2. Arutyunova N.D., Paducheva YE.V. Istoki, problemi i kategorii pragmatiki // Novoye v zarubejnoj lingvistike. Vip. 16. Lingvisticheskaya pragmatika. - M.: Progress, 1985. - S. 3-47.
3. Solganik G.Y., Milix M.K., Vomperskiy V.P. Stilistika gazetnix janrov.- M., 1981. - S. 78.
4. Nayer V.L. Stilistika v terminax teorii verbalnoy kommunikatsii: (stilisticheskiye aspekti verbalnoy kommunikatsii). - M.: MPGU, 2008.-S. 112.
5. R. Dijk 359-383. T.A. Van Discourse and manipulation //Discourse and society. - L., 2006. - Vol. 17, N 2.
6. Serl Dj.R. Klassifikatsiya illokutivnix aktov // Novoye v zarubejnoj lingvistike. Vip.
7. Teoriya rechevix aktov. - M., 1986. - S. 88-89. 1" Demyankov V.Z. Dominiruyushiye lingvisticheskiye teorii v konse XX veka // Yazik i nauka konsa XX veka. - M., 1995. -S. 239-320.
8. Safarov SH. Kognitiv tilshunoslik. - Jizzax: Sangzor, 2006. - B. 39.
9. Xolmatova V. I'ragmatika tushunchasining talqini haqida // Xorijiy filologiy. - Samarqand, 2019.-B. 45-49.
10. Dridze T.M. Yazik i sotsialnaya psixologiy. - M.: Visshaya shkola, 1980. - S. 224.